

KOMPETENSIYA KRITERIYALARI: MOHIYATI VA MUHIM JIHLARI

Zulxumor Babayarova
Renessans Ta’lim universiteti
5-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19453675>

Annotatsiya. Ushbu maqolada kompetensiya kriteriyalarining mohiyati, asosiy xususiyat va baholash usullari yoritilgan. Kompetensiya kriteriyalari shaxsiy, kasbiy, kommunikativ yetakchilik kompetensiyalarini baholashda qanday qo‘llanilishi tushuntirilgan.

Kalit so‘zlar: kompetensiya, kompetensiya kriteriyalari, kasbiy ko‘nikmalar, rivojlanish, baholash.

Аннотация. В данной статье рассматривается сущность критериев компетенций, их основные характеристики и методы оценки. Объясняется, как критерии компетенций применяются для оценки личных, профессиональных, коммуникативных и лидерских компетенций.

Ключевые слова: компетенция, критерии компетенции, профессиональные навыки, развитие, оценка.

Abstract. This article examines the essence of competency criteria, their key characteristics, and assessment methods. It explains how competency criteria are applied to evaluate personal, professional, communicative and leadership competencies.

Keywords: competence, competency criteria, professional skills, development, evaluation

Kirish Zamonaviy ta’lim va ishbilarmonlik muhitida kompetensiya tushunchasi muhim ahamiyat kasb etadi. Kompetensiya- bu ma’lum bir sohaga oid bilim, ko‘nikma va malakalarning yig‘indisi bo‘lib, insonning kasbiy va shaxsiy rivojlanishini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Kompetensiyalarni baholash va rivojlantirish uchun esa kompetensiya kriteriyalari ishlab chiqiladi. Ushbu kriteriyalar insonning kasbiy faoliyatdagi muvaffaqiyatni aniqlash, o‘zini rivojlantirish va ta’lim tizimlarida samarali ta’lim berish uchun muhim hisoblanadi.

Kompetensiya Kriteriyalari Nima? Kompetensiya kriteriyalari – bu shaxs yoki tashkilotning ma’lum bir vazifani bajarish qobiliyatini aniqlash va baholash mezonlaridir. Ushbu kriteriyalar ta’lim, kadrlar boshqaruvi, kasbiy rivojlanish va samaradorlikni oshirish uchun qo‘llaniladi. Kompetensiya kriteriyalari tizimli yondashuv orqali insonning malakasini baholash va uni rivojlantirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi kerak. Ularning aniqligi va ob‘yektivligi muhim omillardan biri hisoblanadi, chunki noto‘g‘ri baholash natijasida xodimlarning kasbiy o‘shiga to‘sqinlik qilinishi mumkin.

Kompetensiya Kriteriyalari muhim jihatlari: aniqlik va o‘lchanish imkoniyati- Kompetensiya Kriteriyalari aniq va oson baholanadigan bo‘lishi lozim. Masalan “yetakchilik qobiliyati” degan umumiy tushuncha o‘rniga “ jamoa boshqarish qobiliyati va qaror qabul qilish malakasi” kabi aniqroq ifodalar ishlatilishi lozim.

Shaxsiy va kasbiy rivojlanishga yo‘naltirilganlik – ushbu kriteriyalar xodimlarning o‘z kasbiy yo‘nalishi bo‘yicha o‘shishi va yangi bilimlarni o‘zlashtirish uchun aniq yo‘l-yo‘riqlarga ega bo‘lishi zarur.

Ish faoliyatiga moslik – kriteriyalar real ish jarayonlariga mos kelishi va aniq natijalarni ko‘rsatishi lozim. Bu esa xodimlarning samaradorligini oshirishga va tashkilotning umumiy natijalariga ijobiy ta’sir qiladi.

Rivojlanish va o‘zgaruvchanlik – bozor talablariga mos ravishda kompetensiya kriteriyalari ham doimiy ravishda takomillashtirib borilishi kerak. Zamonaviy texnologiyalar va yangi ish uslublari rivojlanib borayotgan bir paytda, kompetensiya kriteyalarini ham yangilab borishi zarur.

Asosiy kompetensiya turlari va ularning kriteriyalari

Kompetensiyalar odatda quyidagi asosiy toifalarga bo‘linadi:

Shaxsiy Kompetensiyalar

Mustaqil ishlash qobilyati

Ma’suliyatni his qilish

Kasbiy (Professional) Kompetensiyalar

Soha bo‘yicha chuqur bilim va tajriba

Innovatsion yondashuv va muammolarni hal qilish qobiliyati

Kasbiy axloq va me’yorlarga amal qilish

Ish jarayonida texnologiyalardan foydalanish

Aniqlik va sifatga e’tibor

Kommunikativ Kompetensiyalar

Jamoa bilan ishlash qobilyati

Muzokaralar olib boorish va samarali muloqot qilish

Taqdimot ko‘nikmalari

Yozma va og‘zaki nutq qobilyati

Rivojlanish va Yetakchilik Kompetensiyalari

Strategik fikrlash va rivojlantirish

Jamoaga motivatsiya berish

O‘zgarishlarga moslashish qobilyati

Innovatsion yechimlarni joriy etish

Kompetensiya kriteriyalarini baholash turli usullar orqali amalga oshiriladi:

Test va baholash tizimlari – xodimlar yoki talabalar bilim va ko‘nikmalarini maxsus testlar orqali baholash mumkin.

Amaliy topshiriqlar – real ish sharoitlarida yoki laboratoriyalarda bajariladigan amaliy mashg‘ulotlar orqali kompetensiyalar tekshiriladi.

Intervyu va suhbatlar – mutaxassislar bilan suhbat o‘tkazish orqali insonning kasbiy va shaxsiy kompetensiyalari baholanadi.

Xulosa Kompetensiya kriteriyalari ta’lim, kadrlar boshqaruvi va biznes muhitida samarali ishlash uchun muhim mezon hisoblanadi. Ularni to‘g‘ri belgilash va tatbiq etish nafaqat xodimlarning rivojlanishiga, balki tashkilotning umumiy muvaffaqiyatiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun ham kompetensiya kriteyalarini ishlab chiqishda ularning aniq, o‘lchanadigan va moslashuvchan bo‘lishiga alohida e’tibor berish lozim. Har bir tashkilot va ta’lim muassasi o‘z ehtiyojlariga mos keladigan kompetensiya kriteyalarini ishlab chiqishi va ularga amal qilishni yo‘lga qo‘yishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Boyko A.M (2019), Kompetensiyalar va ularning rivojlanishi tamoyillari, Moskva: Nauka
2. Spencer I.M Spenser S.M (1993), Competence at Work:Models for Superlor Performance, New York:Wiley
3. McClelland D.C (1973), Testing for a Digital World, OECD Publishing
4. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim Vazirligi (2021), Kasbiy ta’limda kompetensiyaviy yondashuv, Toshkent: Ma’naviyat